

# PEDAGOGIK MAHORAT

**MS**  
**2021**



ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**MAXSUS SON  
(2021-yil, dekabr )**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

# PEDAGOGIK MAHORAT

## Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, Maxsus son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

### **Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

### **TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul kotib:** Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

# ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

## Научно-теоретический и методический журнал

### 2021, специальный выпуск

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решении ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по педагогике и психологии.

Журнал основан в 2001г.

Журнал выходит 6 раз в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель:** Бухарский государственный университет

**Адрес редакции:** Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

e-mail: ped\_mahorat@mail.ru

#### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Заместитель главного редактора:** Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук (DSc), доцент

*Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Чудакова Вера Петровна, PhD (Психология) (Киев, Украина)*

*Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Каххаров Отабек Сиддинович, доктор экономических наук (DSc)*

# **PEDAGOGICAL SKILLS**

**The scientific-theoretical and methodical journal**

**2021, special release**

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal is published 6 times a year

The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

e-mail: ped\_mahorat@mail.uz

## **EDITORIAL BOARD:**

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Deputy Editor:** Pedagogical Sciences of Economics, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade.

**Editor:** Doctor of Pedagogical Sciences( DSc), Asst. Prof. Alijon R. Khamraev

*Doctor of Economics Sciences Obidjan X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I. Ibrahimov*

*Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. M. Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Ph.D. of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraine)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R. Amanov*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Economics Sciences Otabek S. Kahhorov*

## MUNDARIJA

<b>Alijon HAMROEV.</b> Modeling activities of teachers when designing creative activities of students.....	7
<b>Matlab TILAVOVA.</b> Ta'lim jarayonida gender tenglik va farqlarni hisobga olishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari.....	13
<b>G'ulom SAYFULLAYEV, M. S.SAFAROVA, I. S.TEMIROVA.</b> Markaziy osiyolik allomalarning tabiat haqidagi asarlaridan boshlang'ich sinf tabiiy fanlarni o'qitishda foydalanish .....	18
<b>Fayzullo QOSIMOV, Mavluda QOSIMOVA.</b> Ikki sonning yig'indisi (yoki ayirmasi) va karrali nisbatiga ko'ra shu sonlarni topishga doir masalalar .....	20
<b>Fayzullo QOSIMOV, Mavluda QOSIMOVA.</b> Ko'paytirish va bo'lishga doir mashqlar tizimini tuzish bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun usuliy tavsiyalar.....	24
<b>Hilola SAFAROVA, Nigora SAFAROVA.</b> Navoiy jonga muhtoj ermas, ammo... ..	28
<b>Nigora ADIZOVA.</b> Qiziqmachoqlarda hayot sabog'ining o'ziga xos talqini.....	30
<b>Nigora ADIZOVA, Hilola XUDOYBERDIYEVA.</b> "Qiziqmachoq" atamasining mohiyati va janriy xususiyatlari .....	33
<b>Mohinur SAIDOVA.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining masofaviy ta'limdan foydalanishining pedagogik va didaktik imkoniyatlari .....	38
<b>Mohinur SAIDOVA, Niginabonu IDIYEVA.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqt tushunchasi bilan tanishtirish.....	42
<b>Nodira ADIZOVA.</b> Toponimlar tarkibida topoasos, topoformant hamda indikator tushunchalari (Buxoro tumani misolida).....	47
<b>Nodira ADIZOVA, Dilsora TOSHPO'LATOVA.</b> Buxoro tumani toponimlarining tasnifi masalasi .....	49
<b>Shoira BOBOYEVA.</b> Metodikada ona tili ta'limini modellashtirishga innovatsion yondashuv .....	51
<b>Халима АРИПОВА, Шоира БАБАЕВА, Наталья РОЗИКОВА.</b> С.Н.Иванов – как поэт-переводчик восточной поэзии .....	58
<b>Шоира БАБАЕВА, Анастасия АЛИМОВА.</b> Влияние международного исследования girls на развитие речи и грамотность чтения младшего школьника .....	64
<b>Шоира БАБАЕВА, Насиба ФАЗЫЛОВА.</b> Развитие речи младших школьников с использованием различных словарей .....	68
<b>Mehriniso HAKIMOVA.</b> Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda matematik tasavvurlarni shallantirishda uzviylikni ta'minlashga doir metodik ta'minot.....	72
<b>Саида ГАФАРОВА, Феруза ХАЛИЛОВА.</b> "Прокариотлар морфологияси ва хужайра тузилиши" мавзусини ўқитишда педагогик технологиялардан фойдаланиш самарадорлиги .....	79
<b>Феруза ХАЛИЛОВА, Шодия НУРМАМАТОВА, Нилуфар ОБЛОҚУЛОВА.</b> Преподавание биологии в школе .....	86
<b>Shoira QURBONOVA.</b> Texnologiya darsi jarayonida talabalarining mehnat tarbiyasini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish .....	89
<b>Gavhar SAIDOVA.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uzunlik haqida tasavvurlarni shakllanritish, uzunliklarni o'lchash malakalarini hosil qilish .....	92
<b>Mashxura YULDASHEVA.</b> Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayonning mazmuni .....	94
<b>Mashxura YULDASHEVA.</b> Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirishning shakl, usul va metodlari .....	97
<b>Yulduz Pulatova.</b> Psychological characteristics of speech cultivation by working on the text in primary school reading lessons .....	101
<b>Mahfuza SADULLOYEVA, Maxtobxon XAYRIYEVA.</b> Maktab o'quvchilari orasida deviant xulq-atvor sabablari, shakllari va korreksion ishlar .....	107
<b>Adiba BAHRONOVA.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashga tayyorlashda darsdan tashqari ish shakllari .....	110
<b>Saodat QODIROVA.</b> Qadimiy maqollar .....	113
<b>Dilshod DAVRONOV.</b> Zamon bilan hamnafas yashagan alloma .....	115
<b>Yulduz NUROVA.</b> Etnologiya va etnografiya munosabati .....	118
<b>Malika XAYDAROVA.</b> Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishning pedagogik imkoniyatlari .....	122
<b>Nodirabegim RAJABOVA.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilarga figura yuzi tushunchasini o'rgatishda tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish.....	125

<b>Nodirabegim RAJABOVA.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish modeli .....	128
<b>Yusufzoda Shabnam.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish .....	132
<b>Mardon YARASHOV.</b> Boshlang'ich ta'limning dars jarayonlariga raqamli texnologiyalarni tadbiq etish vositalari.....	135
<b>Dilora SIDIQOVA.</b> Masofaviy ta'lim sharoitida "matematika o'qitish metodikasi" fanini o'rgatishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishning metodik asosi .....	138
<b>O'g'iljon OLLOQOVA.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sintaktik kompetensiyalarni takomillashtirish..	142
<b>Umida TOG'AYEVA.</b> Loyihaviy ta'lim vositasida "ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirish yo'llari.....	146
<b>Gavhar RUSTAMOVA.</b> O'zbek xalq ertaklarida daraxtlar obrazi bilan bog'liq epik talqinlar .....	150
<b>Feruza ABDULLAYEVA.</b> Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish .....	154
<b>Feruza ABDULLAYEVA.</b> Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli .....	156
<b>Dilnoza XAYRULLAYEVA.</b> 4-sinf ona tili darslarida gap bo'laklarining o'qitilishi .....	159
<b>Mohichehra IBROHIMOVA.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarini o'tishda "day game"dan foydalanish .....	163
<b>Mahliyo HAYDARQULOVA.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarda axborot kompetentligini oshirishda inkorporatsiyadan foydalanishning o'RNI.....	166
<b>Madina OZODOVA.</b> Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalarni o'rgatishning metodik imkoniyatlari .....	170
<b>Nigora RO'ZIYEVA.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida ulush va kasr tushunchalariga doir masalalarni tushuntirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish .....	172
<b>Shahlo SAPAROVA.</b> The classification of Elbek poems in 5 directions .....	175
"Pedagogik mahorat" jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari .....	178

## METODIKADA ONA TILI TA'LIMINI MODELLASHTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV

*Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalash maqsadida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi nuqtayi nazaridan qaraganda o'qituvchi va darslik, o'qituvchi va o'quv material, o'qituvchi va ko'rgazmali qurol bog'lanishlari, tayyor loyihadan foydalanib dars o'tayotgan o'qituvchi nuqtayi nazaridan qaraganda o'qituvchi va loyiha, o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi bog'lanishlari, o'quvchi va o'quv material bog'lanishlari amal qiladi. Loyihalash faoliyatini pedagogning kasbiy kompetensiyasining pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi birligini ifodalaydigan va kasbiy sifatini tavsiflaydigan qismi sifatida qarash zarur.*

**Kalit so'zlar:** loyihaviy ta'lim, o'quvchi, o'quv material, loyihalash faoliyati, kompetensiya, pedagogik texnologiya, modellashtirish, axborot, ta'lim tizimi.

*В данной статье идёт речь о том, как в целях проектирования творческой деятельности учеников при обучении родному языку, с точки зрения применяющего творческое проектирование учителя взаимосвязаны и подчинены таким понятиям :учитель и учебник, учитель и учебные материалы, учитель и наглядные пособия, ученик и учебник, ученик и учебный материал, ученик и наглядные пособия, с точки зрения ведущего деятельность учителя, занимающегося проектированием при проведении уроков связь учитель и проект, учитель и ученик, учитель и привязанности ученика, ученик и учебные материалы. Проектную деятельность следует рассматривать как часть профессиональной компетентности учителя, которая представляет собой единство теоретической и практической подготовки для осуществления педагогической деятельности и характеризует профессиональное качество.*

**Ключевые слова:** проектное обучение, ученик, учебный материал, проектная деятельность, компетентность, педагогическая технология, моделирование, информация, система образования.

*This article discusses how, in order to design the creative activity of students in teaching their native language, from the point of view of the teacher using creative design, they are interconnected and subordinated to such concepts: teacher and textbook, teacher and teaching materials, teacher and visual aids, student and textbook, student and teaching material, student and visual aids, from the point of view of the leading teacher, who is engaged in designing the lessons, the connection between the teacher and the project, the teacher and the student, the teacher and the attachments of the student, the student and the teaching materials. Project activities should be considered as part of the teacher's professional competence, which is the unity of theoretical and practical training for the implementation of pedagogical activities and characterizes the professional quality.*

**Key words:** project learning, student, educational material, project activity, competence, pedagogical technology, modeling, information, education system.

**Kirish.** Hozirgi kunda har bir pedagog yoki ishlab chiqarish xodimi axborot kommunikatsiya texnologiyalari va texnik tizimlari majmuini puxta bilishini bugungi kun taqozo etmoqda. Shu bilan bir qatorda pedagog ishlab chiqarishning faol ishtirokchisi, ishlab chiqarish mutaxassisi ham o'z navbatida pedagog vazifasini bajarishi lozim. Endigi muhim vazifa zamonaviy texnik ta'minotga ega ta'lim muassasalarida yuqori talablar darajasida innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida yoshlarimizga ta'lim-tarbiya berishdan iborat bo'lmog'i lozim. Buning uchun har bir pedagog o'z ustida mukammal ishlashi, zamondan orqada qolmasligi, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini puxta bilishi va o'z faoliyatida joriy etishi zarur. Hozirgi kunda eski an'anaviy uslubdagi darslar yoshlarimiz ehtiyojini qondirmaydi, ular bunday darslarni tinglagisi ham kelmaydi. Bugungi globalashuv jarayonini va yoshlarimizning aqliy rivojlanishini tez sur'atlarda oshib borishini inobatga oladigan bo'lsak, metodikada kreativlik (ijodiy), mustaqil izlanishni taqozo etadigan metod va texnologiyalardan foydalanishimiz bugunning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida mustaqil ta'lim yoki mustaqil izlanishli mashg'ulotlar amalga oshirib kelinmoqda. Lekin bunday mashg'ulotlarda o'z qonun-qoidalariga amal qilinmaydi, shuning uchun ham bu mashg'ulotlar kutilgan natijani bermaydi. Aslida bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi o'quvchi, talaba yoki tinglovchilarga ma'lum bir vazifani maxsus sxema, formula, matematik tenglamalarni ko'rgazmali qurollar asosida beradi.

**Asosiy qism.** Ma'lumki, ta'lim jarayonidagi bosh munosabat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatdir. Ijodiy ta'limda ham bu bog'lanish o'z shaklini o'zgartirgan holda asosiy o'rinni egallaydi. An'anaviy ta'limdagi bog'lanishlar qatoriga o'qituvchi va darslik, o'qituvchi va o'quv materiali, o'qituvchi va ko'rgazmali qurol, o'quvchi va darslik, o'quvchi va o'quv materiali, o'quvchi va ko'rgazmali qurol kabilar kirsa, kompyuterli ta'limda ularning shakli birmuncha o'zgaradi [1]. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalash maqsadida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi nuqtayi nazaridan qaraganda o'qituvchi va darslik, o'qituvchi va o'quv materiali, o'qituvchi va ko'rgazmali qurol bog'lanishlari, tayyor loyihadan foydalanib dars o'tayotgan o'qituvchi nuqtayi nazaridan qaraganda o'qituvchi va loyiha, o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchi bog'lanishlari, o'quvchi va o'quv materiali bog'lanishlari amal qiladi [2]. Dastlab loyihalashda ishtirok etadigan o'qituvchining faoliyati haqida to'xtalamiz. Tabiiyki, ta'lim samaradorligi tuzilgan loyihaning sifatiga bog'liq. Loyihalash faoliyati tuzilmasida faoliyatning ikki darajasi kuzatiladi: loyihalashning loyiha ko'rinishidagi yangi bilimlarni yaratishni ko'zda tutadigan ijodiy xarakteri; ilg'or pedagoglar tajribasini o'rganish asosida yaratilgan loyihada pedagog shaxsini aks ettiradigan loyihalashning individual xarakteri. Loyihalash faoliyatini pedagogning kasbiy kompetensiyasining pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi birligini ifodalaydigan va kasbiy sifatini tavsiflaydigan qismi sifatida qarash zarur [3]. Loyihalash faoliyatiga nazariy tayyorgarlik - loyihalash ko'nikmalari va kompetensiyalar majmuini yuqori darajada egallaganlik hisoblanadi. G.E.Muravyeva loyihalash ko'nikmalariga didaktik jarayon rivojining natijasini oldindan ko'ra bilish sifatida tashxislash; loyihani amalga oshirishni rejalashtirish; moddiy vositalarni yaratishga doir texnologik jarayonni konstruksiyalash; obyekt haqida yangi axborot olishni modellashtirish masalalarini kiritadi [4].

V.A.Slastenin, N.V.Kuzminalar o'qituvchining loyihalash faoliyatiga nazariy tayyorgarligini belgilaydigan kompetensiyalar majmuiga pedagogik faoliyatni o'z-o'zini takomillashtirishni ta'minlovchi refleksiv; o'zining metodik darajasini oshirish qobiliyatini rivojlantiruvchi kognitiv; axborot olish hamda uni qo'llashga oid ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi ma'rifiy; og'zaki va yozma muloqot texnologiyasini rivojlantiradigan kommunikativ; o'zining kasbiy kompetentligi mohiyatini anglashga yo'naltiradigan ijtimoiy kompetensiyani kiritadi.

Ta'limni loyihalashtirishda pedagogik texnologiyadagi yetakchi hisoblangan ta'lim maqsadi, mazmunini loyihalash eng muhim muammolardan biri bo'lib qoladi. Ularni quyidagi tarzda ifodalash mumkin [5]:

- o'quv predmetlarini o'rganishda, eng avvalo, tayanch tushunchalarni o'rganish darajasini aniqlash va ularni o'rganishni loyihalash;
- tayanch tushunchalarning ta'im standartlari, o'quv dasturlariga mosligi, o'quvchining kelgusi faoliyati bilan aloqadorligini loyihalash;
- o'qitish uslublarini loyihalash;
- o'quvchining tayyorgarlik darajasini loyihalash;
- o'qitish mazmunining qo'yilgan maqsad bilan uzviyligini ta'minlash;
- ta'lim uslublarini, ularning qaysi birini darsning qaysi bosqichida qo'llash zarurligini oldindan loyihalash;
- turli tipdagi darslarda bilim va ko'nikmalarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini loyihalash;
- o'qitish jarayonida nazorat va tekshirishning turli usullaridan foydalanishni loyihalash;
- har bir darsda zamonaviy ma'lumotlardan unumli foydalanishni loyihalash;
- o'quv materiali matnlarini tayyorlashda o'quv maqsadlariga erishish yo'llari, vositalari, erishiladigan natijalarni oldindan qayd etish;
- o'quv predmeti bo'yicha maqsad va vazifalar bazasini yaratish, baholash orqali uni to'ldirib borishni loyihalash va h.k.

Yangi materialni o'rgatish jarayoni o'quv materialining xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil etiladi. Nazariy material hajm jihatidan keng bo'lmasa uni qismlarga bo'lmay o'rgatib, mustahkamlashga o'tgan ma'qul. O'quv materiali hajm jihatidan keng bo'lib, uni o'zaro bog'langan qismlarga ajratib o'rgatish imkoniyati bo'lsa, qismlar bo'yicha tushuntirish foydali bo'ladi. O'quv materialini o'zaro mantiqan bog'langan qismlarga ajratib o'qitish o'zlashtirilgan bilimning tuzilishini mumkin qadar ongli his qilishga, bu bilimning oldin o'rganilgan bilimlar bilan aloqadorligini fikran tasavvur etishga olib keladi. Bularning barchasi o'qituvchi tomonidan o'quv materialiga pedagogik ishlov berish jarayonida hal qilinadi [6].

O'quvchi (tinglovchi)lar bunda an'anaviy darslar kabi nazariyadan amaliyotga tomon emas, balki amaliyotdan nazariya tomon boradi va kreativ g'oyalar yaratadi, mavzu doirasida o'z xulosasini chiqaradi. Bunday texnologiyalar asosida ishlash ta'limda yuqori samara beradi. Mustaqil ishlashni talab etadigan

pedagogikada bir qancha metod va texnologiyalar mavjud. Shular jumlasiga medellashtirish texnologiyasini ham kiritish mumkin [12].

Metodikada o'quv jarayonini modellashtirishga innovatsion yondashuvlar, shuningdek, pedagogik tizim va jarayonlarni modellashtirishni bilishi va shu jarayonga moslashishni o'rganish bugungi kunning zamonaviy yoshlari uchun eng zaruriy ehtiyoj bo'lib qoldi. Uzoq yillardan buyon modellashtirish ilmiy tadqiqotning eng dolzarb metodlaridan biri bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda insoniyat o'zining ilmiy, ta'limiy, texnologik, badiiy faoliyatida atrofidagi olamni modellashtirmasdan yashashini tasavvur qila olmaydi. Tasavvur (model)larni qat'iy, aniq shakllantirish juda murakkab, lekin XXI asrga kelib, insoniyat modellashtirish va har xil obyekt va jarayonlardan foydalanishga oid boy tajriba to'pladi. Modellashtirish pedagogik tadqiqotlarda kishining tajribasi, uning sezgi organlari orqali olgan taassurotlari hamda tabiiy sharoitdagi kuzatishlaridan olingan empirik hamda nazariy bilimlarni, ya'ni pedagogik obyektni o'rganish jarayonida tajriba, mantiqiy bog'lanishlarning tuzilishi va ilmiy abstraktlarni birlashtirish imkoniyatini beradi.

"Model" tushunchasi (fr. modele /lot/ modulus – o'lchov, me'yor ma'nolarini anglatadi), tabiiy fanlar yoki umuman fanda muayyan original-obyekt haqidagi ma'lumotlar majmui sifatida yuzaga kelgan hosila - obyekt, moddiy qurilma, grafik, sxema, umuman, bilish vositasi [7]. Boshqacharoq aytganda, model tabiiy obyektlarning imitatsiyasidir (o'xshashi, taqlidiy ko'rinishi), u o'zbek tilidagi "qolip", "andaza" so'zlariga mos keladi. Model hodisalarning yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o'taydi, bunda aniq yoki mavhum obyektlar kichraytirilgan obyektlar, sxemalar, chizmalar, fizikaviy konstruksiyalarda tadqiq etiladi. Modellarni yaratish fanning rivojlanish jarayoni kabi uzluksizdir. Ko'rgazmali modellardan o'qitish jarayonida keng qo'llaniladi va bevosita o'zlashtirilishi qiyin kechadigan obyekt yoki jarayonni ko'z bilan ko'rib tasavvur qilish imkoniyatini beradi [12].

"Modellashtirish" - o'quv materiallari yoki ta'lim mazmunini yaxlit tizimga keltirish [8]. Ta'lim bosqichlaridagi har qanday fan modelga asoslanishga ehtiyoj sezadi. Modellashtirishni qo'llash o'quv tarbiyaviy holatlar va jarayonlarning mohiyatini yanada chuqurroq anglash, tadqiqotning nazariy asoslarini jiddiy o'rganish bilan bevosita bog'liq. O'quv jarayonining tarkibini qulaylashtirish, o'quvchining mustaqil bilishini faollashtirish, o'quvchiga nisbatan shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish va h.k. Demak, modellashtirish – "bilish obyektlarini ularning modellarida tadqiq qilish uslubi; aniq mavjud predmetlar, voqealar va tuziladigan obyektlarning tavsifnomalarini aniqlash yoki yaxshilash, ularni yasash usullarini qulaylashtirish, boshqarish kabilar uchun yasash va o'rganish". Modellashtirish har bir fan obyektni soddalashtiruvchi metoddir. Shu sababli model an'anaviy nazariyalar tushuntirib bera olmagan muammoni hal qiladi, obyektning ilgari kuzatilmagan, ammo kelajakda amalga oshishi mumkin bo'lgan tomonini kashf etadi.

O'zbek tilida lingvistik birliklarni modellashtirish bu belgilar tarkibidagi elementlarning barqaror munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham butunlik tarkibidagi elementlar o'rtasida munosabatlarning barqaror va beqaror turlarga ajratilishi lingvistik modellashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Modellashtirish barcha fanlar uchun xos bo'lgan fanlararo metod hisoblanadi.

O'quvchiga yangi materialni sxemalar, qurilmalar, belgili formulalar, bir so'z bilan aytganda modellsiz bayon qilishning samarasi kam bo'ladi. Modellashtirish o'quv materialining tarkibini qulaylashtirish, o'quv jarayonini rejalashtirishni yaxshilash, bilish faoliyati va o'quv tarbiyaviy jarayonlarni boshqarish, bashoratlash, tashxislash, o'qitishni loyihalashtirishda qo'llaniladi.

Ko'p yillar davomida tilshunoslikda kuzatish metodlari yagona metod hisoblanib kelingan. Ammo bu metodlar yordamida lingvistik hodisalarning ichki mohiyati ochilmaydi. Kuzatish metodi orqali so'z shakllari, gap tuzilishi va boshqa struktur xususiyatlarni o'rganish mumkin bo'ladi. Til va nutqning tuzilishi murakkab bo'lganligi sababli kuzatish metodi yordamida ularni to'liq o'rganish imkoniyati bo'lmaydi. Negaki, til va nutq o'ziga xos murakkabliklarga ega.

Maktabda ona tili ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda nutq madaniyatini tarkib toptirishdir. Madaniy nutq milliy tilning o'ziga xosligi, ma'no jihatidan aniqligi, so'zlarning rang-barang, turli-tumanligi, badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Madaniy nutqning og'zaki shakli adabiy tilning orfoepik me'yorlariga, yozma shakli orfografiya, uslub va shu kabi me'yorlariga mos bo'lishi lozim [12].

Nutq madaniyati adabiy til me'yorlari ustida o'quvchilarning aqliy va amaliy faoliyatini tashkil etish natijasida shakllanadi. Hamma tomonidan e'tirof etilgan, shu tilda so'zlovchilarning barchasi rioya qilishi lozim bo'lgan qonun-qoidalar adabiy til me'yorlari hisoblanadi. Adabiy til me'yorlariga ma'lum tilda mavjud so'zlar, so'zlarning qurilishi, so'z yasash va so'z o'zgartirish modellari, so'z birikmasi, gapni nutqda to'g'ri qo'llash qoidalari kiradi.

Tilning mohiyati uning inson faoliyati ekanligida. Nutq faoliyati bir individning o'z mulohazalari, istak va talablarini ikkinchi individga uzatishi, ikkinchi individning esa birinchisining fikrlarini tushunib

olishi, uning talablariga tasdiq yoki inkor shaklida javob qaytarishi bilan xarakterlanadi. Demak, nutq faoliyatida ikki shaxs: xabar uzatuvchi - gapiruvchi va qabul qiluvchi - tinglovchi ishtirok etadi.

Nutq faoliyati jarayonida soʻzlovchi ham, tinglovchi ham soʻz, soʻz birikmasi va gapga tayanadi. Soʻz, soʻz birikmasi va gapning “aytilish” xususiyati soʻzlovchiga, “eshitilish” xususiyati tinglovchiga xizmat qiladi. “Aytilish” va “eshitilish” maʼnoli jarangdorlik boʻlib, u tilning birinchi shakli - jonli nutqdir. Soʻzning koʻriladigan (yozuv) va oʻqiladigan xususiyati tilning ikkinchi shakli - yozma nutqdir.

Taʼlimda ogʻzaki va yozma nutqning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ularning oʻzaro aloqadorligiga rioya qilish nihoyatda zarur. Grammatika mashgʻulotlarida nutq maqsadiga muvofiq soʻz tanlash yoʻllarini oʻquvchilarga oʻrgatish, soʻzlarning maʼnolarini ochish orqali bolalar toʻgʻri nutq tuzish sirlarini egallay boradilar. Oʻquvchi nutq maqsadiga muvofiq soʻzlarni qancha tez tanlay olsa, nutq faoliyatida shuncha faol qatnashadi. Maktab grammatikasini izchil oʻrganish natijasida oʻquvchilarning nutq jarayonida faol qatnashishlarini taminlaydigan nutq qobiliyatlari tarkib topadi. Nutq qobiliyati nima? Hozirgi zamon psixologiyasi oʻrganayotgan muammolardan biri shaxs qobiliyati masalasidir. Shaxs psixologiyasiga koʻra qobiliyat inson faoliyati talablariga javob bera oladigan shaxsiy individual xususiyatlarning ansambli yoki sintezidir. Nutq qobiliyati inson qobiliyatining bir koʻrinishi sanaladi. Tilni muvaffaqiyatli oʻzlashtirish uchun zaruriy qobiliyatlarni oʻrganib chiqish va shu qobiliyatlar taraqqiyotiga bevosita taʼsir etadigan oʻqitish tizimini yaratish ona tili taʼlimi sohasida eng dolzarb muammo hisoblanadi.

Fikr nutq maqsadiga muvofiq soʻz tanlash, tanlangan soʻzlarga fikrdagi turli bogʻlanishlarni ifodalaydigan yordamchi vositalarni (yordamchi soʻz va qoʻshimchalarni) qoʻshish orqali yuzaga chiqadi. Maqsadga muvofiq soʻz tanlash, ularni grammatik jihatdan uygʻunlashtirib nutq tuza olish soʻzlovchining qobiliyatini ham koʻrsatadi. Kishi oʻzi ishlatadigan soʻzlarining maʼnosini tushunsa, uni toʻgʻri tanlaydi, uni toʻgʻri tanlay olsa, nutqini maqsadga muvofiq tuza oladi. Soʻzni aytish va eshitish psixofiziologik jarayon ekanligini hisobga olib, S.F.Ivanova “psixolingvistik qobiliyat” terminini ishlatgan. Soʻzning maʼnosi borliqdagi narsa-hodisalarni, ularning belgisi, harakati, miqdori va shu kabilarni ifodalash bilan bogʻlangan. “Har qanday narsa umuman boshqa biror narsani eslatganidek, soʻz ham oʻz maʼnosi ustida kishini oʻylashga majbur qiladi” - deb yozgan edi mashhur rus olimi L.S.Vigotskiy. “Aniq narsa, voqea-hodisa inson ongidan oʻtib, tilda oʻz ifodasini topgach, uning ana shu ifodasi tilning ham obyektiga aylanadi. Masalan, “Oʻsimliklar qovjiradi” gapida qovjirab qolgan narsa - oʻsimlik biolog uchun oʻrganish obyektidir. Biolog obyekt sifatida oʻrganadigan oʻsimlik (narsa)ni oʻsimlikning tildagi ifodasini - (oʻsimlikni) tilshunos subyekt deb talqin qiladi. Inson ongi lingvistik kategoriyalar - soʻz, gap vositasida obyektiv borliqni bilishning faol omiliga aylanadi.

Soʻzni nutqda qoʻllash ikki xil omil bilan tavsiflanadi; nutq maqsadiga muvofiq soʻz tanlash, tanlangan soʻzlarni grammatik jihatdan uygʻunlashtirib gap tuzish. Shunday qilib, nutq maqsadiga muvofiq soʻz tanlash, soʻz va gaplarni toʻgʻri aytish hamda toʻgʻri eshitish psixolingvistik qobiliyat komponentlari hisoblanadi.

Adabiyotlarda til oʻqitishda ikki narsa: nazariy bilimlar, nazariy bilimlarga oid hosil qilinadigan malakalar hisobga olinadi. Ammo bolada kishilar bilan aloqa qilish vositasida yoshligidan shakllana boshlagan, maktabda taraqqiy ettirilishi lozim boʻlgan uchinchi narsa - nutq qobiliyati eʼtibordan chetda qoladi. Shunday oʻqitish tizimini yaratish kerakki, tildan beriladigan nazariy bilim, hosil qilinadigan malakalar, bir tomondan bolalarda mavjud boʻlgan nutq qobiliyatlariga mos boʻlsin, ikkinchi tomondan oʻquvchilarda mavjud boʻlgan qobiliyatlar taraqqiyotiga samarali taʼsir etsin.

Til tafakkur bilan bevosita bogʻlangan. Tilni tafakkursiz, tafakkurni tilsiz rivojlantirib boʻlmaydi. Binobarin, ona tili mashgʻulotlarida oʻquvchilarning nutqini oʻstirish uchun qilingan har bir ish bolalarning tafakkurini oʻstirish omili ham sanaladi. Shu tufayli, ona tili taʼlimida oʻquvchilarning nutqini oʻstirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Ong borliqning inson miyasidagi inʼikosidir. Koʻrish, eshitish, sezish, taʼm bilish organlari vositasida tashqi olamdagi narsalar kishi ongida aks etadi. Inson tafakkur vositasida tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalarning oʻxshash va farqli tomonlarini ajratadi, ularni taqqoslaydi, tahlil va sintez qiladi. Bular til vositasida moddiylashadi, kishilar uchun tushunarli boʻladi.

Fikrlash jarayonida abstraksiyalash va umumlashtirishning roli katta. Abstraksiyalash va umumlashtirish bilan uzviy bogʻliq boʻlgan nutq insonning haqiqatni eng yuksak darajada inʼikos etishini taʼminlaydi. Abstraksiyalash va umumlashtirish bilan uzviy bogʻliq boʻlgan ikkinchi signallar tizimi moddiy borliqni inʼikos etishning eng yuksak darajasi boʻlishi bilan birga, insonning nerv faoliyatini, uning butun xatti-harakatini boshqarishning ham eng yuksak regulyatoridir.

Til va tafakkurning oʻzaro bogʻliqligi toʻgʻrisidagi taʼlimotga tayanib, quyidagicha pedagogik xulosalar chiqariladi:

1. Til va tafakkur o'zaro dialektik bog'liq. Qurilayotgan binoning devorlari g'ishtlar yordamida bunyod etilganidek, fikrlashning har bir bosqichi so'z-gaplar vositasida mustahkamlanadi. Demak, o'quvchilarning so'z boyligini o'stirish maktab ta'limining asosiy vazifasidir.

2. Tilga oid bilimlarni o'zlashtirish natijasida o'quvchilar so'z, so'z birikmasi va gapni to'g'ri ishlatish sirlarini bilib oladi. Bu o'quvchi nutqining, shuningdek, ular tafakkurining ham barkamolligini ko'rsatadi.

3. U yoki bu mavzu doirasida hosil qilingan bilimlarning yoroqliligi o'quvchining shu bilimlarini o'z so'zlari bilan aytib bera olish darajasiga ko'ra belgilanadi. Shu tufayli mashg'ulotlarda o'quvchilarga ko'proq yozdiriladi, o'qitiladi, gapirtiriladi.

Maktabda ona tilini o'quv predmeti sifatida o'rgatish - uning tarbiyaviy rolini oshirish, uni o'tkir tarbiya quroliga aylantirish demakdir. Tilning ijtimoiy vazifalari va tarbiyaviy ahamiyatini faqat o'qituvchigina emas, balki o'quvchi ham sezsın, his qilsın. Kishining o'zi uchun gapirib, o'zi uchun yozmasligini, aksincha, kishilar uchun gapirib, kishilar uchun yozishni o'quvchilar ijtimoiy zarurat deb anglamoqlari shart.

Keyingi davrlarga kelib til hodisalarini yoritishda modellashtirishdan foydalanila boshladi. Modellashtirish metodida tadqiqotchi obyektning o'zini emas, balki uning modelini o'rganadi. Original bilan model o'rtasida o'zaro bog'liqlik va mutanosiblik mavjud bo'ladi. Yaratuvchi modellar tilshunoslik rivojlanishi natijasida yuzaga keldi. Bunda lingvistik modellar mavjud narsani tekshirishdan o'tib, yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi. Yaratuvchi modellar invariantligi asosida variantlar haqida xulosa chiqariladi.

Modellashtirish metodi keyingi paytlarda tilshunoslikka faol tatbiq qilina boshladi [8]. Bunda olimlar mazkur metodning bir qator afzalliklari va pragmatik jihatlarini nazarda tutadilar. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

- birinchidan, modellashtirish tavsifiy emas, amaliy metod hisoblanadi;
- ikkinchidan, modellashtirish metodi har qanday sharoitda optimal ("eng qulay", "eng maqbul") hisoblanadi;
- uchinchidan, modellashtirish metodi iqtisod qilish prinsipiga tayanadi. Bunda uzun ta'rif va tavsiflarga ehtiyoj bo'lmaydi;
- to'rtinchidan, obyektни tushuntirish va izohlashni osonlashtiradi va soddalashtiradi.

Ma'lumki, ta'lim mazmunining asosiy tarkibini o'quvchilarga o'rgatishga mo'ljallangan o'quv materiali tashkil etadi va u o'z navbatida o'quv elementlariga ajratiladi. Shuningdek, o'quv materialining o'quv topshirig'i, o'quv savoli, o'quv ko'rgazmasi kabi qator shakllari mavjud [7].

O'quv materiali har bir o'quv predmeti bo'yicha o'quv dasturi va darslikda ma'lum bilimlarning modeli tarzida beriladi. Ta'lim jarayoni o'quv materialini o'rganishdan iborat ekan, ta'lim jarayoni boshlangunga qadar o'quv materialini tahlil etish va unga pedagogik ishlov berish lozim. O'quv materialiga pedagogik ishlov berish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Bunday tadbir o'quv materialini uning eng kichik birligi bo'lgan o'quv elementlariga ajratishdan boshlanadi [5].

Ijodiy ta'limda ajratilgan o'quv elementlari ma'lum tizimga solinadi va har bir o'quv elementi mazmunini ochib beruvchi o'quv materiali matni tayyorlanadi. "Har qanday o'qitish tizimida markaziy o'rinni bilimlarning tayanch tushunchalari egallaydi. Agar ular uslubiy jihatdan mufassal ishlab chiqilmasa, o'qitishda yuqori samaraga erishib bo'lmaydi" [10]. Shuningdek, "Bilimlarning tayanch tushunchalari avtomatlashgan o'qitish tizimida muhim o'rin tutadi: ular mustaqil o'rganish predmeti psixologik xususiyatlarini aniqlashda tashxis elementi, ta'lim jarayonini optimallashtirish parametri va h.k. hisoblanadi".

O'quv materiali o'zaro mantiqan bog'langan qismlardan iborat. Shu tufayli uni qismlarga - o'quv elementlariga ajratib tushuntirish samarali hisoblanadi. Bayon qilish uslubi o'quv materialini elementlarga ajratib o'rgatishda eng qulay ish uslubi sanaladi. Qolaversa, berilgan axborotning hajmi qancha kichik bo'lib, qancha ko'p tekshirilsa, ta'lim jarayoni shuncha muvaffaqiyatli boshqariladi [6].

"O'qitish jarayonini, - deb yozadi V.S. Shubinskiy - shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqichda o'quvchilar kerakli ma'lumotlarni eslab qolishlari kerak, masalan, tushuncha ta'rifini, uning xususiyatlarini, qoidaning ifodalanishini va h.k. Bunda o'quvchilar ularni masalalarni yechishda qo'llay olmaydilar. Ikkinchi bosqich mashq qilish bosqichi bo'lib, birinchi bosqichda o'rganilgan bilimlar masalalarni yechishda qo'llaniladi va o'rganilgan bilimlar ko'nikma va malaka darajasiga ko'tariladi". O'quvchi bayon qilingan materialni to'liq o'zlashtirishi mumkin. Biroq aksariyat holda shu material bilan bog'liq bo'lib, o'quv materialida bayon qilinmagan savollarga javob berishga qiynaladi yoki bilimlarni amaliy masalalarni yechishga tatbiq qila olmaydi. Bunday muammoni bartaraf qilish uchun mashqlar bajartirish muhim o'rin tutadi.

O'quvchilar faoliyati - o'qitishni ijodiy faoliyat subyekti shaklida o'rganish o'quvchilar ijodkorligi tamoyillarini aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Biz mustaqillik, faollik, onglik, ziddiyatlik, sababiyatlik, umumiylik va xususiylikning birligini bolalarda ijodiy qobiliyatini tarbiyalash tamoyillari sifatida ajratamiz.

**Muhokamalar va natijalar.** Bolalar faoliyatini subyekt – obyekt munosabatida tahlil etish bolalar ijodkorligining o'zaro daxldor ikki aspekti - nuqtayi nazarini ajratish imkoniyatini beradi: jarayoniy nuqtayi nazar; vositaviy nuqtayi nazar. Shu nuqtayi nazarlarga ko'ra o'quvchi va o'quv materialining o'zaro ta'siri oldin o'quv materiallariga, so'ngra esa o'quvchi faoliyatiga ko'ra tahlil qilishni taqozo etadi.

Modellashtirishning obyektini umumlashtirish darajasiga ko'ra turlari quyidagicha:

1. Lingvistik fakti tavsiflashga qaratilgan analitik model.

2. Oraliq model yoki to'ldiruvchi model.

3. Maksimal umumlashtirishga asoslangan sintezlovchi model. Lingvistik model tushunchasi struktur tilshunoslikning E.Sepir, L.Blumfeld, R.Yakobson, N.Xomskiy, Z.Harris, Ch.Hokker kabi namoyondalari tomonidan kirib kelgan. Lingvistik model taraqqiyoti esa XX asrning 60 - 70-yillariga (matematik va kibernetik lingvistika rivojlana boshlagan davrga) to'g'ri keladi. Lingvistik modelni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Inson nutqiy faoliyati modellari. Bu modellar konkret nutq jarayonini va hodisalarini aks ettiradi. Masalan, aniq bir tovushning talaffuz modeli yoki nutqning yuzaga chiqish modeli.

2. Lingvistik tadqiqot modellari. Bunda muayyan til hodisalari asosida olib borilgan tadqiqot jarayoni aks ettiriladi. Masalan, o'zbek tilida morfologik usul asosida so'z yasashining umumiy modeli: asos + so'z yasovchi qo'shimcha; xususiy modellari: asos + -chi; asos + -dosh; asos + -do'z kabi.

3. Metamodellar – bunda lingvistik modellar saralanadi, u gipotetik-deduktiv xarakterga ega, abstraktlashgan va ratsionallashtirilgan bo'ladi. Modellashtirish metodi ayrim tillarga, jumladan, ingliz tiliga faol tatbiq qilingan. Ingliz, rus tillarida sodda gap qurilishi quyidagicha belgilangan: S + V + O:

S = ega,

O = to'ldiruvchi,

V = kesim.

Я пишу диссертацию. Он читает книгу.

I have read the book. I am writing a research work.

O'zbek tilida sodda gap qurilishi: S + O + V: Sen she'r bitding. Men she'r yod oldim. S = ega, O = to'ldiruvchi, V = kesim.

WPM minimal sodda gapning modeli. M.: *O'qidim. Yozding.*

Ko'p yillar davomida tilshunoslikda kuzatish metodlari yagona metod hisoblanib keldi. Ammo bu metodlar yordamida lingvistik hodisalarining ichki mohiyatini ochmaydi. Kuzatish metodi orqali so'z shakllari, gap tuzilishi va boshqa struktur xususiyatlarni o'rganish mumkin bo'ladi.

Til va nutqning tuzilishi murakkab bo'lganligi sababli kuzatish metodi yordamida ularni to'liq o'rganib bo'lmaydi. Negaki, til va nutq o'ziga xos murakkabliklarga ega. Keyingi davrlarga kelib til hodisalarini yoritishda modellashtirishdan foydalanila boshladi.

Modellashtirish metodi keyingi paytlarda tilshunoslikka faol tatbiq qilina boshladi. Bunda olimlar mazkur metodning bir qator afzalliklari va pragmatik jihatlarini nazarda tutadilar. Buni quyidagicha izohlash mumkin: *birinchidan*, modellashtirish tavsifiy emas, amaliy metod hisoblanadi; *ikkinchidan*, modellashtirish metodi har qanday sharoitda optimal ("eng qulay", "eng maqbul") hisoblanadi; *uchinchidan*, modellashtirish metodi tejamkorlik prinsipiga tayanadi. Bunda uzun ta'rif va tavsiflarga ehtiyoj bo'lmaydi; *to'rtinchidan*, obyektini tushuntirish va izohlashni osonlashtiradi va soddalashtiradi [12].

Modellashtirish metodining pozitiv va pragmatik tomonlari bilan birga cheklangan tomonlari ham bor. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi: *modellashtirishda faqat struktur va formal belgilarga asoslaniladi*. Bunda mazmuniy tomon, semantik qirralar e'tibordan chetda qoladi. Vaholanki, har qanday hodisaning, xususan, lisoniy hodisaning mohiyati shakl va mazmun birligida o'z ifodasini topadi; *obyekt haqidagi bilimlar rivojlanib borgan sari modellar eskiradi*. Fan, ma'lum ma'noda, avvalgi bilimlarni inkor qilish hisobiga rivojlanadi. Mavjud modellar bilimlar chegarasini nisbatan cheklaydi va xato tasavvurlarga olib kelishi mumkin; *tabiat va jamiyatdagi hech bir narsa boshqa obyektlar ta'siridan holi bo'lmaydi*. Ya'ni modellar nisbiylik xarakteriga ega, ularni mutlaq haqiqat sifatida qabul qilib bo'lmaydi.

Modellashtirish tilshunoslikda strukturalizm yo'nalishi ta'sirida faol tatbiq qilina boshlandi. Gap strukturasini modellashtirish g'oyasi XX asrning 50-yillarida amerikalik tilshunos Charlz Friz tomonidan olg'a surildi. Olim o'z qarashlarini umumlashtirib 1952 yilda "Thye Struture of English" nomli tadqiqotini yaratdi. Ch.Friz o'z konsepsiyasini distributiv model deb nomlagan. Unga ko'ra, gap muayyan so'z turkumlariga oid bo'lgan so'zlar zanjiri hisoblanadi va tahlilda morfologiya bazasiga tayaniladi. Masalan,

“The young man painted the door yesterday” jumlasida distributiv model asosida quyidagicha tahlil etiladi: D 3 P 2-d D Ib 4. Bu yerda D – otning aniqlovchisi (inglizcha determiner), D3 – sifat, I – birlikdagi ot, P2- d – o‘tgan zamon shaklidagi fe‘l, I4 – ravishni anglatadi. Demak, mazkur modelda turli so‘z turkumlariga mansub so‘z shakllarining nutq zanjiridagi distribusiyasi (tarqalishi, qurshovi) gap strukturasini modellashtirishning asosiy mezonini sanaladi. O‘zbek tilshunosligida gapning eng kichik, minimal qolipi [Wpm] ko‘rinishida bo‘lib, bu modelda sodda gapning barcha xususiyatlari jamlangan. Ushbu model gapning ichki mohiyatini ham shakliy jihatini ham o‘zida aks etgan. Modeldagi ramziy birliklar [W]- (ing. Word - atov birligi), [P] - (ing. Predicate), [m] - (ing. marker - kesimlik ko‘rsatkichlari) kabi ma’nolarni anglatadi.

O‘zbek tilida lingvistik birliklarni modellashtirish bu belgilar tarkibidagi elementlarning barqaror munosabatlarga asoslanadi. Shuning uchun ham butunlik tarkibidagi elementlar o‘rtasida munosabatlarning barqaror va beqaror turlarga ajratilishi lingvistik modellashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Modellashtirish barcha fanlar uchun xos bo‘lgan fanlararo metod hisoblanadi.

Bugungi kunda tilshunoslikda erishilgan yutuqlarni ona tili o‘qitish jarayoniga tatbiq qilishga harakat qilsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan, milliy metodikaning bosh maqsadi o‘quvchini fikrlash hamda tafakkurini o‘stirish hamda ularga keng imkoniyat berish kabi masalalar dolzarb sanaladi. Shunday ekan, gap tuzish qoliplarini o‘quvchiga berilsa ularda gap tuzish, nutqini o‘stirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Masalan:

Noun –ot (N)

Verb – fe‘l (V)

Adjectives-sifat (Aj)

Number –son (Nb)

Pronouns-olmosh (Ps)


marker-qo‘shimcha ko‘rsatkichi (m) shaklida belgilanishini taklif etamiz. Bunda:

Ps+N+V<sub>m</sub> → *Men kitob o‘qidim. Sen dars tayyorla. Biz paxta terdik.* Ko‘rinib turibdiki, o‘quvchi bitta model orqali uchta gap har xil gap tuzish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘quvchining fikrlash jarayonini rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Maktabda ona tili ta’limining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda nutq madaniyatini tarkib toptirishdir. Madaniy nutq milliy tilning o‘ziga xosligi, ma’no jihatidan aniqligi, so‘zlarning rang–barang, turli–tumanligi, badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Madaniy nutqning og‘zaki shakli adabiy tilning orfoepik me’yorlariga, yozma shakli orfografiya, uslub va shu kabi me’yorlariga mos bo‘lishi lozim.

## Adabiyotlar

1. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T., 2003. –280 b.
2. Сафарова Р. Теория и практика обучения родного языка школах Узбекистан в условиях национального возрождения. Автореф. Дис. д-ра пед. наук. – Тошкент: 1998. – 36 с.
3. G‘aniyev T.T. Ona tilidan mashq bajarish jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish. Ped. fanl. nomz. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T., 1991. –194 b.
4. Saidahmedov N. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni yangicha o‘qitish texnologiyasi // “Pedagogik mahorat” jurnali. 2003. 2-son. –10-16-b.
5. Mahmudov M.H. Ta’limni didaktik loyihalash. –T.: A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 2002. –79 b.
6. The effect of Studying Morphology in Modeling Syntactic concepts in the lessons of the native Language in Primary Grades BS Babaeva Middle European Scientific Bulletin 5 (10), 84-90.
7. MODELING NATIVE LANGUAGE LEARNING BY DESIGNING EDUCATION S Babaeva European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Volume 8 Number 10, 2020 ISSN 2056-5852 Progressive.
8. Ne‘matova G. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi va o‘quvchining mustaqil faoliyati (Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik tavsiyalar). – T.: RTM, 2001. – 34 b.
9. Кёниг В. Педагогическая диагностика образовательного процесса. – М., 2005. –178 с.
10. Vgotsky L. Psychology of art. Cambridge, MA: MIT Press. 1971.
11. Михеев В.И. Моделирование и методы теории измерений в педагогике / КомКнига, 2006. – 200 с.
12. Hamroyev A.R. Ona tili ta’limida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2020. –250 b.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
 “PEDAGOGIK MAHORAT”  
 ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
 barcha ta’lim muassasalarini  
 hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
 Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

**BuxDU 400110860064017950100079002**

***Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!***

<p><b>PEDAGOGIK MAHORAT</b></p> <p><b>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</b></p> <p><b>2021-yil maxsuus son</b></p> <p><b>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</b></p> <p><b>OBUNA INDEKSI: 3070</b></p>	<p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas’ul: Alijon HAMROYEV.</b>  <b>Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.</b>  <b>Muharrir: O‘g‘iljon OLLOQOVA</b></p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 10.01.2022        Bosmaxonaga topshirish vaqti 14.01.2022        Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8        Tezkor bosma usulda bosildi.        Shartli bosma tabog‘i – 22,5        Adadi – 100 nusxa        Buyurtma № 10        Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.        Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.</p>
--	---	---